UDK: 63.3(2)7

# IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA O‘ZBEKISTONGA SANOAT KORXONALARINING EVAKUATSIYA QILINISHI

*Nurmatov Nurali O‘tkir o‘g‘li*

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti*

*ORCID ID: 0009-0007-9236-9751*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada 1941-1945-yillarida Sovet Ittifoqining g‘arbiy va frontbo‘yi hududlaridan sanoat korxonalarining O‘zbekiston SSRga evakuatsiya qilinishi tahlil qilinadi. Zavod va fabrikalarning ko‘chirilishi, respublika hududlari bo‘ylab taqsimlanishi, ularni joylashtirish va qayta ishga tushirishdagi qiyinchiliklar, xususan, kadrlar va xomashyo muammosi aniq dalillar asosida yoritilgan. Shuningdek, so‘nggi yillarda tadqiq qilingan arxiv hujjatlari asosida evakuatsiya qilingan korxonalar soniga oid yangi statistik ma’lumotlar ham taqdim etilgan.

**Tayanch so‘zlar:** Ikkinchi jahon urushi, evakuatsiya, sanoat korxonalari, O‘zbekiston SSR, Evakuatsiya kengashi, og‘ir sanoat, arxiv hujjatlari, front orti qahramonligi.

**Kirish.** 1941-yilning yozida fashistlar Germaniyasining to‘satdan qilgan hujumi oqibatida mamlakat iqtisodiyoti va sanoatini zudlik bilan harbiy holatga o‘tkazish zarurati yuzaga keldi. Dushmanning shiddatli hujumi natijasida g‘arbiy hududlardagi yirik sanoat markazlari, strategik zavod va fabrikalar dushman qo‘liga o‘tish xavfi ostida qoldi. Mamlakatning mudofaa salohiyatini saqlab qolish, frontni uzluksiz qurol-yarog‘, texnika va oziq-ovqat bilan ta’minlashning yagona yo‘li – sanoatni sharqiy, xavfsiz hududlarga ko‘chirish edi. Bu qisqa muddat ichida yuzlab yirik zavodlarni ko‘chirishni talab etardi. Ushbu jarayonda Markaziy Osiyo, xususan, O‘zbekiston SSR asosiy evakuatsiya markazlaridan biriga bo‘ldi. Respublika xalqi zimmasiga ko‘chirib

keltirilgan korxonalarni qabul qilish, joylashtirish, qayta ishga tushirish va front ehtiyojlari uchun mahsulot yetkazib berishdek mas’uliyatli vazifa tushdi.

**Asosiy qism.** Urushning dastlabki kunlaridanoq egallanish xavfi ostida qolgan hududlardagi sanoat korxonalari va davlat mulklarini mamlakatning sharqiy o‘lkalariga ko‘chirish bo‘yicha choralar ko‘rildi. Shu maqsadda, 1941-yil 24-iyun kuni Butunittifoq Kommunistik partiyasi Markaziy Komiteti va SSSR Xalq Komissarlari Soveti tomonidan Evakuatsiya kengashini tashkil etish to‘g‘risida qaror qabul qilindi. Ushbu kengash zimmasiga tinch aholi, harbiy muassasalar, yirik sanoat ob’ektlari hamda boshqa strategik ahamiyatga ega bo‘lgan boyliklarni xavfsiz hududlarga ko‘chirish jarayonini muvofiqlashtirish va boshqarish vazifasi yuklatildi [2;165-bet].

Respublikaga evakuatsiya qilingan sanoat uskunalarini joylashtirish, montaj qilish va ishga tushirishni boshqarish uchun 1941-yil 25-avgust kuni O‘zbekiston KP(b) Markaziy Qo‘mitasi va O‘zbekiston SSR Xalq Komissarlari Soveti tomonidan maxsus komissiya tashkil etildi. Evakuatsiya qilingan sanoat korxonalarini qisqa muddatlarda montaj qilish jiddiy qiyinchiliklar bilan amalga oshirildi. Ko‘plab zarur vositalar yetishmas edi. Bundan tashqari, malakali kadrlar, ishlab chiqarish binolari, elektr energiyasi, yoqilg‘i va xomashyo etishmovchiligi ham mavjud bo‘lgan. Qiyinchiliklardan biri shunda ediki, evakuatsiya qilingan korxonalarning aksariyatining uskunalari to‘liq holatda kelmagan edi [3;31-bet]..

1941-yil 5-noyabrda Dnepropetrovskdan Andijonga evakuatsiya qilingan Volodarsk nomidagi tikuvchilik fabrikasi rahbariyati SSSR Yengil sanoat Xalq Komissariga fabrikani Andijonda tiklash, qurilish-montaj ishlarini olib borish uchun moliyaviy imkoniyat yo‘qligi haqida murojaat qilgan va davlat buyurtmasini tezroq bajarish hamda fabrikani ishga tushirish uchun zudlik bilan 607,8 ming rubl miqdorida limit ajratish so‘ragan [1;70-varaq].

1941–1942-yillar davomida O‘zbekiston hududiga jami 93 ta sanoat korxonasi ko‘chirib keltirildi. Eng ko‘pi Toshkent shahri va Toshkent

viloyatiga to‘g‘ri kelib, u erda 66 ta korxona o‘z faoliyatini boshladi. Farg‘ona vodiysi yo‘nalishida 19 ta ob’ekt joylashtirildi (shundan Farg‘onada 14 ta, Andijonda 4 ta va Namanganda 1 ta). Shuningdek, Samarqand viloyatida 5 ta, Buxoroda 2 ta va Surxondaryoda 1 ta korxona ishga tushirildi. Ko‘chirib kelingan sanoat ob’ektlarining qariyb 70 foizi aynan poytaxt va uning atrofidagi tumanlarga joylashtirildi. Bu holat mintaqaning boshqa hududlarga qaraganda Toshkentning iqtisodiy imkoniyatlari kengligi, texnik bazasining mustahkamligi va infratuzilmasi yaxshi rivojlanganligi bilan izohlanadi [4;7-bet]. Toshkent va Toshkent viloyatida asosan og‘ir sanoat, elektr energetikasi va mashinasozlik korxonalari joylashgan bo‘lsa, Farg‘ona viloyatida engil va kimyo sanoati korxonalari, Andijon, Namangan, Samarqand, Buxoro va Surxondaryo viloyatlarida esa engil va oziq-ovqat sanoati korxonalari joylashtirilgan. Shu o‘rinda aytish lozimki, O‘zbekistonga 90 dan ortiq yirik korxona ko‘chirildi, ularning asosiy qismi Toshkent viloyatiga joylashtirildi. 1941-yil iyundan 1943-yil dekabrgacha Toshkent viloyatiga 65 ta korxona ko‘chirib kelindi [5;31-bet].

1941-yil iyuldan 1942-yil iyulga qadar Sovet Ittifoqining front hududlaridan 100 ga yaqin yirik sanoat korxonalari O‘zbekistonga evakuatsiya qilindi. Shundan bir qismi Samarqandda joylashtirildi: «Qizil dvigatel» mexanika zavodi, Leningrad va Odessa kinoapparatura zavodlari, 2 ta shakar zavodi, Poltava trikotaj fabrikasi, Odessa vinnokamen kislotasi zavodi, Simferopol meva-konserva zavodi, Odessa sharbat zavodi va boshqalar. Og‘ir sharoitga qaramay, bu korxonalar 2-6 oy ichida o‘z faoliyatini qayta boshladi. Korxonalarning samarali ishlashini ta’minlash maqsadida 1942-yil yozida Samarqandda 8 kmlik temir yo‘l qurildi [6;179-bet].

Urush yillarida O‘zbekistonga ko‘chirib keltirilgan 170 dan ziyod sanoat korxonalari orasida mamlakat iqtisodiyoti uchun strategik ahamiyatga ega bo‘lgan ko‘plab yirik zavod va fabrikalar bor edi. Ular sirasiga Leningrad to‘qimachilik mashinasozligi zavodi, qishloq xo‘jaligi texnikalari ishlab

chiqaruvchi “Rostselmash” va “Qizil Oqsoy” korxonalari, shuningdek, Sumsk kompressor hamda Dnepropetrovsk karborund zavodlari kirardi. Bundan tashqari, Moskvadan “Elektrokabel” va “Podyomnik” ob’ektlari, Temir yo‘llar xalq komissarligiga qarashli mashinasozlik zavodi, Kievning “Transsignal” korxonasi hamda Stalingrad kimyo kombinati kabi yirik ishlab chiqarish kuchlari respublikaga joylashtirildi [7;440-bet].

1941-yil 10-dekabrdagi SSSR Davlat reja qo‘mitasining maxsus hisobotida evakuatsiya ishlarini tashkil etishdagi ayrim nuqsonlar va kamchiliklar qayd etilgan [8;142-bet]: Evakuatsiya qilingan korxonalarni yangi manzillarda ishga tushirishdagi katta to‘siqlardan biri mutaxassis kadrlar yetishmovchiligi edi. Ko‘p hollarda zavodlar bilan birga u yerdagi dastgohlarni boshqaradigan tajribali xodimlar yetarli darajada ko‘chib kelmagan. Mahalliy aholi orasidan yangi ishchilarni tayyorlash esa qo‘shimcha vaqt va katta kuch talab qilardi. Shu sababli, zavod xodimlarini o‘z uskunalari bilan birga ko‘chib kelishga qiziqtirish uchun maxsus imtiyozlar tizimi joriy qilinadi. Jumladan, oziq-ovqat ta’minoti va ish haqi to‘lashni tartibga soluvchi hujjatlarda evakuatsiya qilingan ishchi-xizmatchilar alohida imtiyozli toifaga kiritilib, ularga qo‘shimcha qulayliklar yaratildi.

Ko‘chirib keltirilgan korxonalarni joylashtirish va ularni ishga tushirishga respublika budjetidan 450 million rubl sarflandi [9;205-bet]. Markaziy Osiyo va Qozog‘istonga joylashgan 308 ta zavod va korxona evakuatsiya qilindi. 2020-yilgacha tadqiqotlarda 103 ta zavod evakuatsiya qilinganligi ko‘rsatilgan bo‘lsa, arxiv hujjatlarining maxfiylashtirilishi bu ko‘rsatkichni 170 ta korxonaga yetkazdi [10;134-bet].

**Xulosa** qilib aytganda, Ikkinchi jahon urushi yillarida sanoat korxonalarining O‘zbekistonga ko‘chirilishi nafaqat fashizm ustidan qozonilgan g‘alabani ta’minlashda, balki respublika milliy iqtisodiyotining keyingi taraqqiyotida ham tub burilish yasadi. Mahalliy aholi hamda evakuatsiya qilingan mutaxassislarning fidokorona mehnati evaziga sanoat

korxonalari rekord darajadagi qisqa muddatlarda qayta ishga tushirildi. Toshkent, Samarqand, Farg‘ona kabi shaharlar yirik sanoat hududlariga aylandi. Yangi ochilgan arxiv hujjatlarining tasdiqlashicha, avval o‘ylanganidek 103 ta emas, balki 170 dan ortiq strategik zavod va fabrikalarning O‘zbekistonga ko‘chirilishi mamlakatda og‘ir sanoat va mashinasozlik tarmoqlarining shakllanishiga kuchli turtki bo‘ldi. Bu tarixiy jarayon O‘zbekiston xalqining front ortidagi chinakam qahramonligi va iqtisodiy matonatini yorqin namoyon etadi.

## FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Andijon viloyat davlat arxivi. R-456-fond, 1-ro‘yxat, 17-yig‘majild. 70-varaq.
2. Вклад трудящихся Узбекистана в Победу в Великой Отечественной войне. Ташкент: Фан, 1975. – 165 с.
3. Из истории коммунистической партии Узбекистана. Сборник научных трудов том 198. – Ташкент: «Фан», 1977. – С.31.
4. Бичанина З.И., Креленко Д.М. Вторая мировая война. Большой иллюстрированный атлас. – Москва, 2018. – С. 7
5. Из истории коммунистической партии Узбекистана. Сборник научных трудов том 198; – Ташкент: «Фан», 1977, 31-бет.
6. Ефимов В.И. Патриотические подвиги трудящихся Самаркандской области в годы Великой Отечественной войны. – Самарканд, 1962. – 179 с.
7. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. – Тошкент, 2000. – Б. 440.
8. Симонов Н. Военно-промышленный комплекс СССР в 1920–1950-е годы: темпы экономического роста, структура, организация производства и управление. – Москва: РОССПЭН, 1996. – С. 142.

9. Хакимов Г. Ўзбекистонга уруш вақтида кўчириб келтирилган корхоналарни тиклаш ва ишга тушириш тарихидан // Фашизм устидан қозонилган ғалабада Ўзбекистоннинг тарихий ҳиссаси (Илмий-назарий конференция материаллари). – Тошкент: Фан, 1995. – Б. 205.

10. Махкамов А.В. Рассекречивание документов периода Второй мировой войны в Республике Узбекистан. Журнал Отечественные архивы, 2020. № 4. – С. 134.